

## OG‘IZ BO‘SHLIG‘I YALLIG‘LANISH KASALLIKLARINI VA ULARNING ISHLAB CHIQRISHDA ISHLAYDIGAN ISHCHILARDA ASORATLARNI DAVOLASH JARAYONI VA NATIJALARNING XUSUSIYATLARI

*Masharipova Nasiba Ataboyevna*

*Xorazm viloyati Toshkent Davlat Tibbiyot Akademiyasi*

*Urganch filiali. Stomatologiya fakulteti assistenti*

*Ilmiy rahbar: prof. Xabibova Nazira Nasulloyevna*

Og‘iz bo‘shlig‘i yallig‘lanish kasalliklari sanoat ishchilari orasida keng tarqalgan muammolardan biridir. Xususan, ishlab chiqarishda ishlaydigan ishchilarning turmush tarzi, sharoitlari va ish faoliyati bu kasalliklarning kelib chiqishiga va ularning asoratlarning rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Xorazm viloyati Shovot tumani Uztekst sanoatida faoliyat ko‘rsatayotgan ishchi xodimlar orasida o‘tkazilgan ilmiy izlanishlar natijalari mazkur kasalliklar va ularning asoratlarni aniqlash, davolash usullarini tadqiq qilish, shuningdek, samarali profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqishga qaratilgan.

Ushbu tadqiqot uchun Xorazm viloyati Shovot tumanidagi Uztekst sanoati ishchi xodimlarining sog‘liq holati o‘rganildi. Tadqiqotga 100 nafar ishchi xodim jalb qilinib, ularda og‘iz bo‘shlig‘i yallig‘lanish kasalliklari (1-rasm) mavjudligi, asoratlari va ularning davolanish jarayoni kuzatildi. Klinik tahlillar, og‘iz gigiyenasi ko‘rsatkichlari, bemorlarning kasallik tarixi va individual suhbatlar orqali ma‘lumotlar yig‘ildi. Tadqiqotda konservativ va jarrohlik usullar yordamida davolash natijalari tahlil qilindi.



*1-rasm. Og‘iz bo‘shlig‘i yallig‘lanishi.*

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Uztekst sanoati ishchi xodimlari orasida og‘iz bo‘shlig‘i yallig‘lanish kasalliklari keng tarqalgan bo‘lib, kasallikning asoratlari ham ko‘plab kuzatilgan. Ishchi xodimlarning shaxsiy gigiyenaga e‘tiborsizligi, noto‘g‘ri ovqatlanish va chekish kabi zararli odatlar (2-rasm) kasalliklarning rivojlanishiga olib kelgan. Davolash jarayonida bemorlarning sog‘lig‘ini tiklashda

maxsus davolash usullari va profilaktik choralar qo‘llanildi. Bemorlarning aksariyatida asoratlarni bartaraf etildi va davolash samaradorligi yuqori bo‘ldi.



*2-rasm. Chekish kasallikni rivojlantirgan.*

Olingan natijalar sanoat ishchilari orasida og‘iz bo‘shlig‘i yallig‘lanish kasalliklarini oldini olish va davolashning dolzarbligini yana bir bor tasdiqladi. Sanoat sharoitlarida ishlayotgan xodimlar orasida sog‘lom turmush tarzi va shaxsiy gigiyenaga e‘tibor qaratish zarurligi aniqlandi. Shuningdek, tadqiqot asosida ishlab chiqilgan profilaktik chora-tadbirlar sanoat sohasida keng joriy etilishi lozim.

#### **Xulosa:**

Xorazm viloyati Shovot tumani Uztekst sanoat ishchi xodimlari orasida og‘iz bo‘shlig‘i yallig‘lanish kasalliklarini aniqlash va davolash bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy izlanishlar kasalliklarning oldini olishda va asoratlarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Davolash jarayonida qo‘llanilgan usullar o‘z samarasini ko‘rsatdi va bu kelgusida sanoat ishchilari orasida sog‘liqni saqlash chora-tadbirlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kubayev A.S. Stomatologik kasalliklar profilaktika asoslari. Samarqand davlat tibbiyot universiteti.
2. Malcolm D, Paul E (1961). Erosion of the teeth due to sulphuric acid in the battery industry. Br J Industr Med, 18: 63-9.
3. Dental Diseases of Acid Factory Workers Globally-Narrative Review Article. Article in Iranian Journal of Public Health · February 2014. Pankaj Aapaliya Pacific University India.
4. Shizukuishi S, Hayashi N, Tamagawa H, Hanioka T, Maruyama S, Takeshita T et al. (1998). Life style and periodontal health status of Japanese Factory workers. Ann Periodontol, 3: 303-11.

5. Sanadhya S, Ramesh N, Sharda A, Asawa K, Tak M, Batra M et al. (2013). The Oral Health Status and the Treatment Needs of Salt Workers at Sambhar Lake, Jaipur, India. *J Clin Diagn Res*, 7: 1782-6.
6. Ramesh N, Sudhanshu S, Sharda A, Asawa K, Tak M, Batra M et al. (2013). Assessment of the Periodontal Status among Kota Stone Workers in Jhalawar, India. *J Clin Diagn Res*, 7: 1498-1503.
7. Malcolm D, Paul E (1961). Erosion of the teeth due to sulphuric acid in battery industry. *Br J Ind Med*, 18: 63-9.
8. Bruggen CH (1968). Dental erosion in industry. *Br J Ind Med*, 25: 249-66.